

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

INFLATIONAL PRESSURE FACTORS IN UZBEKISTAN AND THEIR REPRESENTATION IN THE CONSUMER PRICE INDEX

Ismailova Shakhnoza Uktamovna

Independent researcher at the Institute of Personnel Training and Statistical Research of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article examines the nature of inflation in Uzbekistan, the monetary and non-monetary drivers behind it, and the role of external shocks as well as exchange-rate changes transmitted into consumer prices in shaping the dynamics of the Consumer Price Index (CPI). Inflation is interpreted as a complex phenomenon emerging from the interaction of monetary policy, fiscal conditions (budgetary spending and taxation), market structure, administratively regulated tariffs, import prices, and inflation expectations. Using the 2020–2025 context, the paper provides a descriptive analysis of CPI, the policy (key) rate, and the exchange rate, and proposes directions for empirically assessing these factors across CPI components.

Keywords: inflation; Consumer Price Index (CPI); monetary factors; non-monetary factors; cost-push inflation; external shocks; imported inflation; policy rate; administratively regulated tariffs; inflation expectations.

O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI

Ismailova Shaxnoza Uktamovna

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida inflyatsiyaning mohiyati, unga ta'sir etuvchi monetar va nomonetar omillar, shuningdek tashqi shoklar hamda valyuta kursidagi o'zgarishlarning iste'mol narxlarida aks etishi natijasida iste'mol narxlar indeksining (INI) dinamikasi yoritiladi. Maqolada inflyatsiya jarayoni pul-kredit sharoitlari bilan bir qatorda davlatning byudjet xarajatlari va soliq siyosati (fiskal omillar), bozor tuzilmasi, ma'muriy tartibga solinadigan tariflar, import narxlar hamda inflyatsion kutilmalar o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi kompleks hodisa sifatida talqin qilinadi. 2020–2025 yillar kontekstida INI, asosiy stavka va almashuv kursi dinamikasi tavsifiy tahlil qilinib, omillarni INI bo'limlari kesimida ajratib baholash uchun empirik baholash yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya; iste'mol narxlar indeksi (INI); monetar omillar; nomonetar omillar; xarajat inflyatsiyasi; tashqi shoklar; import qilingan inflyatsiya; asosiy stavka; ma'muriy tartibga solinadigan tariflar; inflyatsion kutilmalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N10>

Kirish. Inflyatsiya makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, narxlar darajasining uzluksiz o'sishi natijasida pul birligining sotib olish qobiliyatini pasaytiradi. Inflyatsiyani faqat narxlar oshishi sifatida emas, balki iqtisodiyotdagi pul-kredit sharoitlari (foiz stavkalari, kredit shartlari, likvidlik va pul massasi), fiskal impuls (byudjet xarajatlari va soliq o'zgarishlari), bozor tuzilmasi, tashqi konyunktura hamda iqtisodiy agentlarning kutilmalari bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin qilish zarur. Bunday yondashuv, ayniqsa, ochiq iqtisodiyot sharoitida inflyatsion bosim

manbalari bir paytning o'zida yuzaga kelib, bir-birini kuchaytirishi va iste'mol narxlari indeksida (INI) turlicha tezlik hamda turlicha kuch bilan aks etishini tushuntirishda metodik jihatdan muhimdir. Maqolaning maqsadi — O'zbekiston sharoitida inflyatsiyaning mohiyati va yuzaga kelish omillarini monetar, nonomonetar hamda tashqi shoklar kesimida tizimlashtirish, ularning INIga uzatilish kanallarini konseptual model asosida yoritish va 2020–2025-yillar kontekstida empirik tahlil uchun amaliy yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

Ilmiy yangilik va tadqiqot hissasi.

– O'zbekiston sharoitida inflyatsion bosim manbalari monetar va nonomonetar omillar, tashqi shoklar hamda davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar va xizmat haqlari (kommunal va transport tariflari) kesimida yagona konseptual usulda tizimlashtirildi.

– Omil → uzatish kanali → INI bo'limlari zanjiri bo'yicha ta'sir mexanizmlari amaliy tahlil uchun moslashtirildi.

– 2020–2025 yillar bo'yicha tavsifiy tahlil ramkasi va keyingi empirik baholash uchun metodik yo'nalishlar taklif etildi.

1. Inflyatsiyaning mohiyati va uni o'lchashda INI ning o'rni

Inflyatsiya odatda pulning sotib olish qobiliyati pasayishi bilan birga tovar va xizmatlar umumiy narxlar darajasining barqaror o'sishi orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan inflyatsiyani alohida mahsulot narxining vaqtinchalik tebranishi bilan tenglashtirish metodik xatolikka olib keladi; chunki makroiqtisodiy tahlilda narxlar tizimining umumiy dinamikasi va uning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi signal funksiyasi muhimdir. [3,4,8]

Inflyatsiya pulning hisob birligi, muomala vositasi va jamg'arma vositasi sifatidagi funksiyalariga ta'sir etadi. Narxlarning tez-tez va kutilmagan o'zgarishi resurslarni samarali taqsimlashni qiyinlashtiradi, investitsiya loyihalarini baholashda noaniqlikni kuchaytiradi hamda uzoq muddatli shartnomalarning real mazmunini o'zgartiradi. Inflyatsiya ijtimoiy jihatdan ham notekis ta'sir ko'rsatadi: daromadi ma'lum miqdorda belgilangan va tez-tez indeksatsiya qilinmaydigan guruhlar (ish haqi, pensiya, nafaqa oluvchilar) ko'proq yo'qotishga uchrashi mumkin. Aksincha, jamg'armasining bir qismi real aktivlarda (masalan, ko'chmas mulk, valyuta, oltin va h.k.) bo'lgan guruhlar inflyatsiyadan nisbatan ko'proq himoyalangan bo'ladi. [3,4,6,8]

Inflyatsiyani amaliy o'lchashda INI asosiy indikator hisoblanadi. INI o'rtacha iste'molchi xarid qiladigan tovar va xizmatlar savati qiymatidagi o'zgarishni aks ettirib, narx kuzatuvlari, salmoqlar (vaznlar) tizimiga tayangan holda hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda INIning hisoblash bo'yicha asosiy tushunchalar va ta'riflar, qo'llaniladigan usullar, indeks formulalari hamda sifat o'zgarishlarini hisobga olish masalalari tizimli bayon etilgan. O'zbekiston amaliyotida ham INI hisoblash mexanizmi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, ma'lumotlarni shakllantirishda turli manbalarni (an'anaviy kuzatuvlar, ma'muriy va raqamli kanallar) qo'llash istiqbollari kengaymoqda. [1,2]

O'zbekiston iste'mol savatida oziq-ovqat ulushining nisbatan yuqoriligi hamda mavsumiylik omili INI dinamikasida qisqa muddatli tebranishlarni kuchaytiradi. Shuningdek, kommunal xizmatlar, yoqilg'i-energetika va transport kabi tartibga solinadigan narxlar (tariflar) bo'yicha qarorlar xizmatlar bo'limi orqali inflyatsiyaga kechikib, biroq barqaror ta'sir ko'rsatishi mumkin. Importga bog'liqlik sharoitida almashuv kursi va tashqi narxlar shoklari, ayniqsa nooziq-ovqat tovarlarida narxlar uzatish kanalini faollashtiradi. [1,2,9]

2. Inflyatsiya omillarini tizimlashtirish: ichki va tashqi manbalar

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari ko'pincha bir-biriga bog'liq ichki va tashqi omillar majmuasi bilan izohlanadi. O'zbekiston sharoitida inflyatsiyani tushuntirishda monetar va fiskal omillar, xarajat va bozor tuzilmasi omillari, (iii) tarkibiy va institutsional cheklovlar, ma'muriy tartibga solinadigan narxlar va tariflar, tashqi shoklar hamda valyuta kursi o'tish effekti, inflyatsion kutilmalar kabi yo'nalishlar birgalikda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. [3,4,6,8,9]

Monetar yondashuv doirasida inflyatsion bosimning muhim manbalari pul taklifi dinamikasi, kredit ekspansiyasi, foiz stavkalari sharoiti hamda fiskal impulsar bilan bog'lanadi. Pul massasining real ishlab chiqarishdan tezroq o'sishi, kredit shartlarining keskin yumshashi yoki davlat xarajatlari va transfertlarning yuqori sur'atlarda kengayishi agregat talabni kuchaytirib, talab inflyatsiyasiga zamin yaratishi mumkin. [3,5,6] Biroq talab kanali har doim ham to'g'ridan-to'g'ri INIga o'tmaydi: iqtisodiyotning taklifga moslashish tezligi, import ulushi, raqobat darajasi va ishlab chiqarish quvvatlarining bandlik darajasi uzatish kuchini belgilaydi. Shu bois pul-kredit sharoitlari parametrlari (asosiy stavka, kredit shartlari) bilan INI dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikda vaqt kechikishlari va tarkibiy farqlarni alohida hisobga olish talab etiladi. [4,5,9] Shu bilan birga, monetaristik yondashuvda inflyatsiya uzoq muddatda pul massasining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, "inflyatsiya har doim va hamma yerda monetar hodisa" degan tezis bilan izohlanadi. [12,13]

Nonomonetar yondashuvlar inflyatsiyani ishlab chiqarish xarajatlari, taklif cheklovlari va bozor tuzilmasi bilan bog'laydi. Energiya resurslari, yoqilg'i, xomashyo, transport-logistika xarajatlari, soliqlar va turli yig'imlarning o'sishi mahsulot birligi tannarxini oshiradi. Korxonalar foyda marjasini saqlash maqsadida narxlarni ko'tarishga intiladi va bu xarajat inflyatsiyasini yuzaga keltiradi. [4,5,8] Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda tarkibiy cheklovlar, taklifning past elastikligi hamda daromad taqsimoti omillari xarajat inflyatsiyasini kuchaytirishi mumkin. [16,17]

Bozor konsentratsiyasi va raqobat muhitining darajasi xarajat shoklarining iste'mol narxlariga uzatilish tezligi va to'liqligini belgilaydi. Raqobat kuchli segmentlarda ishlab chiqaruvchi xarajat o'sishini to'liq narxga o'tkaza olmasligi mumkin; aksincha, raqobat past bo'lgan segmentlarda narx belgilash kuchi yuqori bo'lib, shoklar tezroq va to'liqroq aks etadi. [3,4] Narxlarning qisman o'zgarishi va shartnomalarning bosqichma-bosqich tuzilishi shoklarning narxlarga o'tishini kechiktirishi va uzatishni asta-sekin shakllantirishi mumkin. [14]

Mavsumiylik va qisqa muddatli taklif cheklovlari, ayniqsa oziq-ovqat bo'limida, INI dinamikasida sezilarli tebranishlarni keltirib chiqaradi. Hosil sikllari, saqlash va sovutkich infratuzilmasi, ichki logistika, ulgurji bozorlardagi institutsional sharoitlar taklifning mavsumiy tebranishini kuchaytirishi mumkin. [2,3]

Inflyatsiyaning barqaror yuqori darajada saqlanishida iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklar ham muhim rol o'ynaydi. Tarmoqlararo samaradorlik tafovutlari, bozor infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi, narxlarni ma'muriy tartibga solishning qamrovi va institutsional zaifliklar narxlarning moslashuvini murakkablashtiradi hamda ayrim segmentlarda 'qotib qolgan' inflyatsion komponentni kuchaytirishi mumkin. [4,8,11] Kutilmalar bilan kengaytirilgan Phillips egri chizig'i doirasida inflyatsiya dinamikasi mehnat bozori bo'shlig'i va kutilayotgan inflyatsiya bilan bog'lanadi; ratsional kutilmalar sharoitida esa pulning neytralligi haqidagi natijalar kuchayadi. [15,21–23]


Globallashuv sharoitida tashqi omillarning inflyatsiyaga ta'siri sezilarli kuchayadi. Ochiq iqtisodiyotda jahon bozoridagi oziq-ovqat, energiya va xomashyo narxlarining tebranishi, global logistika zanjirlaridagi uzilishlar va transport-sug'urta xarajatlarining o'sishi import qilingan inflyatsiya kanalini faollashtiradi. [2,10]

Import qilingan inflyatsiya odatda uch yo'nalish orqali uzatiladi:

- import tovarlarining chakana narxlari,
- import xomashyo va oraliq mahsulotlar orqali ichki ishlab chiqarish xarajatlari,
- logistika va tashish xarajatlari.

Bu kanallar INI tarkibida import ulushi yuqori bo'lgan guruhlarda nisbatan tezroq aks etadi. [2,3,8]

Valyuta kursi o'tish effekti tashqi shoklar ta'sirini kuchaytiruvchi mexanizm bo'lib, kurs tebranishlari import narxlariga bevosita ta'sir etadi va keyinchalik chakana narxlarga uzatiladi. Uzatish darajasi kontraktlarning valyuta tarkibi, zaxira siyosati, raqobat muhiti va narxlarni qayta belgilash chastotasiga bog'liq. Qisqa muddatda kurs ta'siri asosan import ulushi yuqori tovarlarda sezilsa, o'rta muddatda xarajatlar va kutilmalar kanali orqali xizmatlar segmentiga ham yoyilishi mumkin. [4,5,9]



1-rasm. 2020–2025 yillarda INI (yillik) va asosiy stavka dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (asosiy stavka), Milliy statistika qo'mitasi (inflyatsiya ko'rsatkichlari) hamda muallif hisob-kitoblari.

3. Ma'muriy tartibga solinadigan narxlar va tariflar


O'zbekiston sharoitida ma'muriy tartibga solinadigan narxlar va tariflar inflyatsiyaning mustaqil kanali sifatida ajralib turadi. Uy-joy-kommunal xizmatlari, energiya resurslari, jamoat transporti va ayrim ijtimoiy xizmatlar tariflaridagi o'zgarishlar ko'pincha bozor mexanizmidan ko'ra tartibga solish jadvali va kompensatsiya mexanizmlari bilan belgilanadi. Natijada xizmatlar bo'limida qisqa muddatli o'sishlar yoki sezilarli o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. [9,18,19]

Tarif kanali nafaqat bevosita xizmatlar tariflarida, balki xarajat zanjiri orqali boshqa tovar guruhlarida ham inflyatsion bosimni kuchaytiradi. Masalan, energiya va transport

xarajatlarning o'sishi oziq-ovqat yetkazib berish, qayta ishlash va saqlash xarajatlari orqali kengroq bozor segmentlariga tarqaladi. Shu bois tariflar bo'yicha qarorlar qabul qilishda inflyatsion oqibatlarni ex-ante (oldindan) baholash va kommunikatsiya qilish amaliy ahamiyatga ega. [4,9] Tashqi savdo cheklovlari va tariflarning qiymat zanjiri bo'ylab tarqalishi import xarajatlarini oshirib, ichki narxlarga ko'p bosqichli tarzda uzatilishi mumkin. [33,34]

Inflyatsion kutilmalar ko'plab uzatish kanallarining kuchaytiruvchi omili hisoblanadi. Aholi va biznes kelgusida narxlar oshishini kutsa, bu oldindan xarid qilish, shartnomalarda indeksatsiya ulushining ortishi, narxlarni tez-tez qayta ko'rib chiqish kabi xatti-harakatlar orqali inflyatsiyani o'zi-o'zini ta'minlaydigan jarayonga aylantirishi mumkin. [3,4,11]

Pul-kredit sharoitlari nuqtai nazaridan nominal va real foiz stavkalari o'rtasidagi farq muhim ahamiyat kasb etadi. Soddashtirilgan Fisher ayniyati real stavkani kutilayotgan inflyatsiyani inobatga olgan holda izohlaydi: $r \approx i - \pi^e$. Kutilmalar oshgan paytda nominal stavka o'zgarmasa, real stavka pasayadi va jamg'arma rag'batlari susayishi mumkin; aksincha, kutilmalar pasayganda real stavka ortib, uzoq muddatli jamg'arma va investitsiya qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. [4,5,9] Yangi keynsian yondashuvda markaziy bankning foiz stavkasi bo'yicha qarori agregat talab va inflyatsiyaga IS-Phillips mexanizmlari orqali ta'sir ko'rsatadi, shu bois asosiy stavka kutilmalarni boshqarish instrumenti sifatida ham muhimdir. [7]



2-rasm. Almashuv kursi dinamikasi (2020–2025)

Manba: muallif hisob-kitobi (rasmiy ma'lumotlar asosida).

INI odatda oziq-ovqat, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar bo'limlari kesimida tahlil qilinadi. Mazkur bo'limlar inflyatsion shoklarga turlicha sezgirlikka ega bo'lib, uzatish mexanizmlarining kuchi ham bo'limlar bo'yicha farqlanadi.

- Oziq-ovqat bo'limi: mavsumiylik, taklif cheklovlari, logistika va import narxlari ta'siri nisbatan yuqori.
- Nooziq-ovqat bo'limi: kurs o'tish effekti va import ulushi yuqori segmentlarda tezroq uzatish kuzatilishi mumkin.

- Xizmatlar bo'limi: tariflar, ish haqi ulushi yuqori tarmoqlar, indeksatsiya va kutilmalar kanali orqali nisbatan sekin, biroq barqarorroq dinamika.

Amaliy tahlilda omillarni faqat umumiy INIga emas, balki bo'limlar va yirik guruhlar kesimida bog'lash inflyatsion bosimning qaysi kanal orqali kelayotganini aniqlashda muhim. [2,3,9]

Tahlilda 2020–2025 yillar bo'yicha yillik INI (yillik, %), Markaziy bankning asosiy stavkasi (% yil bo'yicha) hamda UZS/USD almashuv kursining yillik o'rtacha qiymatlari qo'llanildi. Ko'rsatkichlar dinamikasi grafik va jadval usulida taqqoslandi, omillar esa INI bo'limlari kesimida konseptual uzatish kanallari bo'yicha guruhlandi.

Ko'rsatkichlar talqini: INI — iste'mol narxlari indeksining yillik o'sishi (yil/yil); asosiy stavka — pul-kredit sharoitlari indikatori; kurs — UZS/USD bo'yicha o'rtacha yillik daraja. Tavsifiy tahlil usuli: trend va burilish nuqtalarini aniqlash, omillarni monetar/nomonetar/tashqi/tarif guruhlarini bo'yicha tizimlashtirish, INI bo'limlari (oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmatlar) kesimida ta'sir kanallarini sifat jihatdan solishtirish.

1-Jadval

2020–2025-yillarda INI (yillik), pul-kredit sharoitlari va almashuv kursi dinamikasi

Yillar	INI (yillik), %	Asosiy stavka, %	Almashuv kursi (o'rtacha), UZS/USD	Izoh (tarif/shok)
2020	11.1	14.0	10 054	Pandemiya shoklari; logistika va oziq-ovqat narxlari bosimi.
2021	10.0	14.0	10 609	Ichki talab tiklanishi; narxlar barqarorlashuvi tendensiyasi.
2022	12.3	15.0	11 050	Global oziq-ovqat/energiya shoklari; import xarajatlari oshishi.
2023	8.8	14.0	11 735	Tashqi shoklar pasayishi; disinflatsiya bosqichi.
2024	9.8	13.5	12 652	Kommunal tariflar bosqichlari; xizmatlar inflyatsiyasi.
2025	7.3	14.0	12 579*	Inflyatsiya pasayishi; tarif va xizmatlar bo'yicha bosim saqlanishi.

Izoh: INI — yil/yil (% yillik); UZS/USD — yil bo'yicha o'rtacha kurs; asosiy stavka — yil davomida amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha indikator (manba ma'lumotlariga ko'ra).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (asosiy stavka, UZS/USD kursi — e-GDDS), O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (INI va inflyatsiya bo'yicha rasmiy press-relizlar) hamda muallif hisob-kitoblari. *2025-yil kurs — yanvar–dekabr o'rtachasi.

Empirik baholash uchun ma'lumotlar chastotasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar INI, kurs va pul-kredit ko'rsatkichlari oylik kesimda mavjud bo'lsa, vaqt qatori yondashuvlari orqali uzatish elastikliklarini baholash imkoniyati kengayadi. Yillik kesimdagi 2020–2025 ma'lumot esa klassik econometrika uchun cheklangan bo'lib, asosan tavsifiy tahlil va ssenariy baholashga mos keladi. [4,5]

Shu bois tadqiqot dizaynida quyidagi bosqichlar tavsiya etiladi: INI bo'limlari bo'yicha dinamikani ajratish, kurs o'tish effektini import ulushi yuqori guruhlar kesimida baholash, tarif

qarorlarining ta'sirini hodisa tahlili usulida ajratish, kutilmalarni proksi indikatorlar orqali modelga kiritish.

O'zbekiston uchun savdo hamkorlari (jumladan, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy va Yevro hududi)dagi inflyatsiya hamda asosiy import tovarlari narxlari tashqi iqtisodiy vaziyat ko'rsatkichlari sifatida alohida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, global yoqilg'i va oziq-ovqat narxlari indekslarini logistika xarajatlari yoki yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan birga talqin qilish tavsiya etiladi. [10,32,35]

Empirik baholashni chuqurlashtirish (keyingi bosqich): oylik qatorlar shakllantirilgach, ARDL/VAR va lokal proyeksiya yondashuvlari orqali almashuv kursi o'tish elastikligi hamda tashqi shoklarning INI bo'limlariga ta'sirini miqdoriy baholash mumkin. [30–31]

Empirik baholash: korrelyatsion-regression natijalar (2020–2025, oylik ma'lumotlar asosida)

Ushbu kichik bo'limda almashuv kursi dinamikasining INI (iste'mol narxlari indeksi) bo'limlariga qisqa muddatli uzatilishi soddalashtirilgan empirik yondashuvda baholandi. Tahlil 2020-yil yanvar–2025-yil dekabr oylik ma'lumotlariga ($n=72$) asoslanadi. Almashuv kursi omili sifatida USD/UZS oylik o'rtacha kursining logarifmik o'zgarishi foiz ko'rinishida qo'llanildi: $x_t = 100 \cdot \Delta \ln(e_t)$, bu yerda $\Delta \ln(e_t) = \ln(e_t) - \ln(e_{t-1})$. [4,5]

Avval korrelyatsion tahlil 0–3 oylik kechikishlar (laglar) bo'yicha amalga oshirildi. Natijalarga ko'ra, umumiy INI va $\Delta \ln(e_t)$ o'rtasida o'sha oyda ijobiy bog'liqlik ($r=0.239$) kuzatildi. Nooziq-ovqat bo'limida bog'liqlik 1 oylik kechikish bilan kuchliroq (lag1: $r=0.294$) bo'ldi. Xizmatlar bo'limida esa korrelyatsiya deyarli nol (lag0: $r \approx -0.03$), bu kurs o'zgarishlari xizmatlar narxlariga tezkor va bevosita o'tmasligini anglatadi.

Korrelyatsion natijalarni miqdoriy talqin qilish maqsadida taqsimlangan lag regressiya baholandi: $\pi_t = \alpha + \sum_{k=0}^K \beta_k x_{t-k} + u_t$, (bu yerda $x_t = 100 \cdot \Delta \ln(e_t)$), bu yerda π_t — INI ning oylik o'zgarishi (m/m, foiz punktlarda). K qiymati 0–3 oralig'ida AIC mezoni bo'yicha tanlandi. Seriyal korrelyatsiya va geteroskedastiklikka chidamli HAC (Newey–West) standart xatoliliklari qo'llanildi. [30–31]

2-Jadval natijalariga ko'ra, umumiy INI uchun eng yaxshi model $K=0$ bo'lib, $\beta_0=0.145$ ($p=0.006$). Bu USD/UZS kursi oylik 1% ga oshganda ($x_t=1$ bo'lganda) (so'm qadrsizlanganida) umumiy INI ning oylik o'sishi o'rtacha 0.145 foiz punktga yuqoriroq bo'lishi bilan mos keladi. Nooziq-ovqat bo'limida ta'sir asosan 1 oy kechikib namoyon bo'ldi ($\beta_1=0.0895$; $p=0.044$), ya'ni kurs shoki keyingi oyda nooziq-ovqat narxlarida sezilarliroq aks etishi mumkin. Oziq-ovqat va xizmatlar bo'limlari bo'yicha esa ushbu bir omilli spetsifikatsiyada 5% darajada statistik ahamiyatli laglar aniqlanmadi.

Izoh va cheklovlar: mazkur baholash bir omilli bo'lgani sababli natijalar kurs o'zgarishining INIga qisqa muddatli bog'liqligini ko'rsatadi, biroq sababiy (kausal) ta'sir sifatida talqin qilinmaydi. INI dinamikasiga tariflar, monetar sharoitlar (asosiy stavka), mavsumiylik hamda tashqi narx shoklari (global oziq-ovqat/energiya) bir vaqtda ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun keyingi bosqichda ushbu nazorat omillarini kiritgan holda ARDL/VAR yoki hodisa tahlili yondashuvlari orqali kurs uzatish elastikliklarini mustahkamlash maqsadga muvofiq. [10,32,35]

Tahlilda ushbu bog'liqlik kengaytirilgan regressiya qayta baholandi (nazoratlar: global narxlar, monetar sharoitlar, tarif shoklari va mavsumiylik). To'liq natijalar Ilova A da keltiriladi.

Kengaytirilgan model natijalariga ko'ra, almashuv kursi kanalining qisqa muddatli uzatish effekti ijobiy, biroq kattaligi kichik: kursning 1% oylik oshishi ($x_t=1$ bo'lganda) umumiy INI m/m o'rtacha ≈ 0.010 foiz punktga oshishi kuzatiladi (*, 10%). Shu bilan birga, global oziq-ovqat narxlari va ma'muriy tarif shoklari inflyatsiyaga nisbatan kuchliroq va barqarorroq ta'sir ko'rsatadi (***, 1%).

O'zgaruvchi	Kengaytirilgan model (coef; HAC SE)	Qisqa talqin
$x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS})$ (t)	0.010* (0.005)	Kurs kanali: qisqa muddatda ijobiy, ammo zaif ERPT
$\Delta \ln \text{FAO FFPI}$	0.066*** (0.014)	Tashqi oziq-ovqat narxlari kanali: kuchliroq ta'sir
Tarif shoki	1.727*** (0.421)	Ma'muriy tarif o'zgarishlari oyma-oy inflyatsiyada sezilarli turtki

2-Jadval

**Almashuv kursi o'zgarishining INI bo'limlariga qisqa muddatli uzatish effekti:
regressiya natijalari**

Bog'liq o'zgaruvchi (INI, m/m; p.p.)	Tanlangan K	β koeffitsientlar (HAC) ($x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS})$ laglari)	$\Sigma \beta$ (0..K)	N	Qisqa talqin
INI (yig'ma)	0	$\beta_0 = 0.145^*$ (p=0.006)	0.145	71	Kurs 1% oshsa, CPI shu oyda $\sim +0.145$ p.p. (ahamiyatli).
INI (oziq-ovqat)	3	$\beta_0 = 0.303$ (p=0.088); $\beta_1 = -0.036$ (p=0.857); $\beta_2 = 0.041$ (p=0.807); $\beta_3 = -0.142$ (p=0.216)	0.166	68	Koeffitsiyentlar 5% darajada tasdiqlanmadi (indikativ).
INI (nooziq-ovqat)	1	$\beta_0 = 0.004$ (p=0.922); $\beta_1 = 0.089^*$ (p=0.043)	0.094	70	Asosiy ta'sir 1 oy kechikib ($\sim +0.089$ p.p., ahamiyatli).
INI (xizmatlar)	3	$\beta_0 = -0.267$ (p=0.325); $\beta_1 = 0.389$ (p=0.291); $\beta_2 = -0.199$ (p=0.315); $\beta_3 = 0.186$ (p=0.243)	0.111	68	Ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi (indikativ).

Izoh: β — $x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS})$ bo'yicha (1% birlikda) baholangan koeffitsiyentlar; $\Sigma \beta$ — 0..K laglar bo'yicha kumulativ ta'sir; HAC — Newey–West standart xatoliliklari. * belgisi 5% darajada statistik ahamiyatni bildiradi.

Xulosa. Ushbu maqolada inflyatsiya jarayonining ko'p omilliligi, tashqi shoklar va almashuv kursi orqali narxlarga uzatish mexanizmlari hamda ma'muriy tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ning inflyatsion kutilmalarga ta'siri tizimli yoritildi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kurs o'tish effekti (ERPT) odatda vaqt bo'yicha kechikib namoyon bo'ladi va tovar-xizmatlar tarkibida bir xil emas: import ulushi yuqori bo'lgan segmentlarda tezroq, xizmatlar va ma'muriy narxlar ustun bo'lgan yo'nalishlarda esa sekinroq kuzatiladi.

O'zbekiston sharoitida inflyatsiyani samarali boshqarish uchun umumiy INI bilan cheklanmasdan, COICOP bo'limlari kesimida muntazam monitoring yuritish, narx bosimining manbasini erta aniqlash va mos choralarni tanlash muhimdir. Bunda pul-kredit sharoitlari bilan bir qatorda tarif o'zgarishlarini oldindan aniq e'lon qilish va tushuntirish hamda ularni joriy

etish muddatlari va ketma-ketligini puxta rejalashtirish, tashqi narxlar (oziq-ovqat va energiya) dinamikasini hisobga olish hamda raqobat va logistika omillari orqali uzatish kanalini yumshatish inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Kelgusida empirik baholashni chuqurlashtirish maqsadida oylik ma'lumotlar bazasini boyitish, tarif hodisalari bo'yicha aniq indikatorlar (dummy) kiritish va ARDL/VAR kabi vaqt qatori usullari orqali uzatish effektlarini bo'limlar kesimida baholash tavsiya etiladi. Bu yondashuvlar siyosiy qarorlar uchun dalillarga asoslangan (evidence-based) xulosalarni kuchaytiradi. Tarif shoklari indikator (dummy) rasmiy qarorlar asosida kommunal xizmatlar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, issiqlik, ichimlik suvi) va jamoat transporti tariflari o'zgargan oylar uchun 1 (aks holda 0) qiymat oluvchi o'zgaruvchi sifatida shakllantiriladi.

ILOVA A. Empirik baholash

Quyida Model A (statik) va Model B (dinamik/ARDL-ruhida) bo'yicha kengaytirilgan regressiya natijalari keltiriladi. Spetsifikatsiyada almashuv kursi (0–3 lag), tashqi narxlar proksilari, monetar sharoitlar, tarif shoklari va mavsumiylik nazorat qilindi; standart xatoliklar HAC (maxlags=3).

O'zgaruvchi	Model A (coef)	Model A (SE)	Model B (coef)	Model B (SE)
$x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS}) (t)$	0.010*	(0.005)	0.009*	(0.005)
$x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS}) (t-1)$	0.001	(0.006)	0.000	(0.006)
$x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS}) (t-2)$	-0.005	(0.007)	-0.005	(0.007)
$x_t = 100 \cdot \Delta \ln(\text{USD/UZS}) (t-3)$	0.003	(0.007)	0.004	(0.007)
Asosiy stavka (daraja)	0.233***	(0.040)	0.220***	(0.043)
Δ Asosiy stavka	-0.289***	(0.102)	-0.270**	(0.106)
$\Delta \ln$ FAO FFPI	0.066***	(0.014)	0.064***	(0.013)
$\Delta \ln$ Brent	-0.005	(0.003)	-0.004	(0.003)
Tarif shoki (dummy)	1.727***	(0.421)	1.778***	(0.408)
CPI (t-1)			0.097	(0.092)

Eslatma: *, **, *** — 10%, 5%, 1% daraja. Model A Adj.R²=0.828, Model B Adj.R²=0.829.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom. – Toshkent, oxirgi tahrir. 2024.
2. IMF; ILO; OECD; Eurostat; UNECE; The World Bank. Consumer Price Index Manual: Concepts and Methods. – Washington, DC, 2020.
3. Mankiw, N. G. Macroeconomics. – 9th ed. – New York, 2015.
4. Blanchard, O.; Johnson, D. R. Macroeconomics. – 7th ed. – Harlow, 2017.

5. Dornbusch, R.; Fischer, S.; Startz, R. *Macroeconomics*. – 12th ed. – New York, 2014.
6. Mishkin, F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – 11th ed. – Boston, 2015.
7. Galí, J. *Monetary Policy, Inflation, and the Business Cycle: An Introduction to the New Keynesian Framework and Its Applications*. – 2nd ed. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
8. Romer, D. *Advanced Macroeconomics*. – 4th ed. – New York, 2012.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari" va yillik hisobotlar. – Toshkent, turli yillar.
10. International Monetary Fund (IMF). *World Economic Outlook va boshqa tahliliy hisobotlar*. – Washington, DC, turli yillar.
11. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London, 1936.
12. Friedman, M. *The Role of Monetary Policy* // *American Economic Review*. – 1968. – Vol. 58, No. 1. – P. 1–17.
13. Friedman, M.; Schwartz, A. J. *A Monetary History of the United States, 1867–1960*. – Princeton, 1963.
14. Taylor, J. B. *Aggregate Dynamics and Staggered Contracts* // *Journal of Political Economy*. – 1980. – Vol. 88, No. 1. – P. 1–23.
15. Lucas, R. E. *Expectations and the Neutrality of Money* // *Journal of Economic Theory*. – 1972. – Vol. 4, No. 2. – P. 103–124.
16. Taylor, L. *Income Distribution, Inflation, and Growth: Lectures on Structuralist Macroeconomic Theory*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
17. Thirlwall, A. P. *Inflation, Saving and Growth in Developing Economies*. – London: Macmillan, 1974.
18. European Central Bank. *The ECB's Monetary Policy Strategy*. – Frankfurt am Main, 2021.
19. Federal Open Market Committee. *Statement on Longer-Run Goals and Monetary Policy Strategy*. – Washington, DC, 2020.
20. Bank of Japan. *Price Stability Target of 2 Percent va tegishli bayonotlar*. – Tokyo, turli yillar.
21. Phillips, A. W. *The Relation Between Unemployment and the Rate of Change of Money Wage Rates in the United Kingdom, 1861–1957* // *Economica*. – 1958. – Vol. 25, No. 100. – P. 283–299.
22. Samuelson, P. A.; Solow, R. M. *Analytical Aspects of Anti-Inflation Policy* // *American Economic Review*. – 1960. – Vol. 50, No. 2. – P. 177–194.
23. Phelps, E. S. *Phillips Curves, Expectations of Inflation and Optimal Unemployment Over Time* // *Economica*. – 1967. – Vol. 34, No. 135. – P. 254–281.
24. Raxmatullayeva, F. A.; Hamdamova, M. U. *Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosati* // *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. – Toshkent, 2024.
25. Nabiyeu, N. Sh. *Inflyatsiya: O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi hamda uning o'rni va ahamiyati* // *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. – Toshkent, 2024.
26. Abdullayev, S. *Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit sharoitlarining ahamiyati* // *Ilmiy jurnal maqolasi*. – 2022.
27. Muxitdinova, M. *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib boriladigan pul-kredit sharoitlarining mohiyati va yo'nalishlari* // *Moliya va bank ishi*. – 2024.
28. Eshpo'latova, M. K. *O'zbekistonda inflyatsiya prognozi va boshqaruv choralari* // *Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali*. – 2025.
29. Sohibjonovich, N. S. *Pul-kredit siyosatini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari* // *Ilmiy maqola*. – 2025.

30. Al Rasasi, M.; Cabezon, E. Uzbekistan's Transition to Inflation Targeting // IMF Working Paper. – 2022. – No. WP/22/229. – Washington, DC: International Monetary Fund, November 2022.
31. Atamanchuk, M.; Hajdenberg, A.; Kadissi, D.; Lisi, G.; Rao, N. Drivers of Inflation in the Caucasus and Central Asia // IMF Working Paper. – 2025. – No. WP/25/3. – Washington, DC: International Monetary Fund, January 2025.
32. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation— Press Release; and Staff Report // IMF Country Report. – 2024. – No. 24/210. – Washington, DC: International Monetary Fund.
33. Gnoco, N.; Montes-Galdón, C.; Stamato, G. Tariffs across the supply chain // ECB Working Paper Series. – 2025. – No. 3081. – Frankfurt am Main: European Central Bank.
34. Maechler, A. M. Tariffs in a world of large global capital flows – implications for central banks (Speech at Bruegel, Brussels, 23 September 2025). – Basel: Bank for International Settlements, 2025.
35. World Bank. Food Security Update (CIX): Food price inflation. Update October 18, 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).